

**Dastlabki ma'lumotlar**


**Xizmatlar sohasi** bu — korxonalar, tashkilotlar, shuningdek, jismoniy shaxslar tomonidan ko'rsatiladigan turli xil xizmatlar, ishlab chiqarishni o'z ichiga olgan umumlashtirilgan toifadir. Ushbu sohani ko'pincha rivojlangan zamonaviy infratuzilma tufayli sanoatdan keyingi iqtisodiy tuzilma tarzida ko'riladi.

**Ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari**

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2020- yilning yanvar-noyabr oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 12 125,1 mlrd. so'mga yetdi.

Uning nominal hajmi 1 456,0 mlrd. so'mga oshdi.

Taqqoslama ekvivalentda o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 102,3 % ni tashkil etdi.

**Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi**

O'sish sur'ati, o'tgan yilga nisbatan, % da

**Xizmatlar** – iste'molchilar (yuridik va jismoniy shaxslar) holatini o'zgartiradigan yoki tovarlar, xizmatlar va moliyaviy aktivlar bilan ayriboshlashiga ko'maklashadigan ishlab chiqarish faoliyatining natijasi hisoblanadi.

**Farg'ona viloyatida xizmatlar sohasining rivojlanishi**



*Dastlabki ma'lumotlar*


Xizmatlar sohasi ishlab chiqarish unumдорligi va samaradorligini oshirishga yordam beradigan turli xil faoliyat turlarini o'z ichiga oladi.

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ishlab  
chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari  
(2020- yilning yanvar-noyabr oylarida)**

	Hajmi, mlrd. so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, % da
<b>Xizmatlar - jami</b>	<b>12 125,1</b>	<b>102,3</b>
<i>shu jumladan:</i>		
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	677,5	111,5
Moliyaviy xizmatlar	2 093,1	122,5
Transport xizmatlari	2 446,9	100,2
<i>shu jumladan: avtovoz xizmatlari</i>	<i>2 349,4</i>	<i>104,3</i>
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	312,3	98,8
Savdo xizmatlari	3 981,6	100,3
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	312,9	90,7
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	567,6	103,4
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	205,2	89,4
Ijara xizmatlari	291,5	93,7
Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	321,4	91,5
Shaxsiy xizmatlar	552,8	91,0
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	98,4	75,3
Boshqa xizmatlar	263,9	87,8

*Dastlabki ma'lumotlar*

Eng yuqori o'sish sur'atlari moliyaviy xizmatlar (122,5 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (111,5 %), ta'lif xizmatlari (103,4 %), hamda, savdo xizmatlari (100,3 %), da qayd etildi.

**2020- yil yanvar-noyabr oylarida ayrim xizmat turlari hajmining taqqoslanishi, mlrd. so'm.**

*Dastlabki ma'lumotlar*


Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibida eng katta ulushni savdo xizmatlari egallaydi. Shunday qilib, 2020- yilning yanvar-noyabr oylarida ularning ulushi 32,8 % ni tashkil etdi. Shu bilan birga, yuqori ko'rsatkichlar transport xizmatlari (20,2 %), moliyaviy xizmatlar (17,3 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari bo'yicha (5,6 %) qayd etildi.

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ishlab chiqarilgan xizmatlarning tarkibi**

Eng yuqori ulush		Eng past ulush			
	Savdo xizmatlari	32,8		Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	2,6
	Transport xizmatlari	20,2		Yashash va ovqatlanish xizmatlari	2,6
	Moliyaviy xizmatlar	17,3		Kompyuterlarni ta'mirlash xizmatlari	2,6
	Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	5,6		Ijara xizmatlari	2,4
	Ta'lim sohasidagi xizmatlar	4,7		Boshqa xizmatlar	2,2
	Shaxsiy xizmatlar	4,5		Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	1,7
	Yanvar-noyabr 2020- y.			Me'morchilik sohasidagi xizmatlar	0,8
	Yanvar-noyabr 2020- y.				

**Dastlabki ma'lumotlar**

Xizmatlar sohasining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'tgan yilning mos davriga nisbatan eng yuqori o'sish sur'atlari moliyaviy xizmatlar (122,5 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlar (111,5 %), ta'lif xizmatlar (103,4 %), savdo sohasidagi xizmatlar (100,3 %) hamda transport sohasidagi xizmatlar (100,2 %) hissasiga to'g'ri keladi.

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'atlari taqqoslanishi**

*Dastlabki ma'lumotlar*


Joriy yilning yanvar-noyabr oylarida eng yuqori hajm savdo xizmatlarida 3 981,6 mlrd. so'm, transport xizmatlarida 2 446,9 mlrd. so'm, moliyaviy xizmatlarda 2 093,1 mlrd. so'm, aloqa va axborotlashtirish xizmatlarida 677,5 mlrd. so'mni tashkil etganini ko'rish mumkin.

**Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tarkibi, 2020- yil  
yanvar-noyabr (%)**

2020- yil yanvar-noyabr oylarida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmi Farg'ona viloyatida 312,3 mlrd. so'mni tashkil etdi. Shundan, yashash bo'yicha xizmatlar 25,4 mlrd. so'm, oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar 286,9 mlrd. so'mni tashkil etgan.

Dastlabki ma'lumotlar

**2020- yil yanvar-noyabr oylarida ko'rsatilgan  
transport xizmatlari tarkibi, %**



2020- yil yanvar-noyabr oylarida transport xizmatlari hajmi Farg'ona viloyatida 2 446,9 mlrd. so'mni tashkil etdi. Shundan, avtotransport xizmati 2 349,4 mlrd. so'mni, jami transport xizmatlarining 96,0 % ni tashkil etadi.



## FARG'ONA VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

Dastlabki ma'lumotlar

### Hududlar bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari (2020- yilning yanvar-noyabr oylarida)


	Hajmi, mlrd. so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, % da 2019- y.
<b>Farg'ona viloyati</b>	<b>12 125,1</b>	<b>102,3</b>
Farg'ona sh.	5 567,1	102,9
Qo'qon sh	1 487,9	95,4
Quvasoy sh.	199,4	107,8
Marg'ilon sh.	1 167,0	97,1
Oltiariq t.	364,8	110,0
Qo'shtepa t.	204,6	106,6
Bag'dod t.	241,6	102,4
Buvayda t.	320,3	99,1
Beshariq t.	258,3	107,6
Quva t.	288,0	107,4
Uchko'prik t.	337,4	107,3
Rishton t.	235,0	105,6
So'x t.	100,0	108,3
Toshloq t.	281,6	114,9
O'zbekiston t.	273,4	106,1
Farg'ona t.	302,7	96,0
Dang'ara t.	227,4	108,0
Furqat t.	107,0	105,9
Yozyovon t.	161,6	107,9

2020- yil yanvar-noyabri oylarida o'tgan yilning mos davriga nisbatan eng yuqori o'sish sur'atlari Quvasoy shaxrida (107,8 %) va Toshloq (114,9 %), Oltiariq (110,0 %), So'x (108,3 %), tumanlarida qayd etildi.

Farg'ona viloyatida xizmatlar sohasining rivojlanishi

Dastlabki ma'lumotlar

**2020- yil yanvar-noyabr oylarida Farg'ona viloyatida jami xizmatlar hajmida hududlarning ulushi  
(jami hajmga nisbatan %)**



2

2020- yil yanvar-noyabr oylarida hududlar bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar hajmiga nisbatan eng yuqori ulushni Farg'ona (45,9 %), Qo'qon (12,3 %) va Marg'ilon (9,6 %) shaharlarida hamda Oltiariq (3,0 %), Uchko'prik (2,8 %) tumanlarida qayd etildi.

Xizmatlari sohasi  
statistikasi bo'limi  
73-249-87-28

Farg'ona viloyatida xizmatlar sohasining rivojlanishi